

“HIBAT UL-HAQOYIQ”: MATN VA TADBIL

Sharipova Sunbula Ahad qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

sharipovasunbula730@gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostonida qo'llanilgan hadislar, hadislarning matnga singdirish yo'llari va usullari, matn va uning tadbili haqida mulohazalar yuritiladi. Fikrlar adibning “Hibat ul-haqoyiq” dostonidan olingan she'riy parchalar orqali asoslanadi.*

***Kalit so'zlar:** adib Ahmad Yugnakiy, “Hibat ul-haqoyiq”, Qur'on, hadis, iqtibos, ishora, aqd, ishora she'riy san'atlari.*

“HIBAT UL-HAQOYIQ”: TEXT AND RESEARCH

Sharipova Sunbula Ahad qizi

Lecturer at Samarkand State Pedagogical Institute

***Abstract.** The article discusses the hadiths used in Ahmad Yugnaki's epic poem "Hibat ul-haqoyiq", the ways and methods of incorporating hadiths into the text, the text and its translation. The ideas are based on poetic fragments taken from the poet's epic poem "Hibat ul-haqoyiq".*

***Keywords:** Writer Ahmad Yugnaki, "Hibat ul-haqoyiq", Quran, hadith, quotation, allusion, aqd, allusion poetic arts.*

«HIBAT UL-HAQOYIQ»: ТЕКСТ И ИССЛЕДОВАНИЕ

Шарипова Сунбула Ахад кизи

преподаватель Самаркандского государственного

педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются хадисы, использованные в эпической поэме Ахмада Югнаки «Хибат аль-хакойик», способы и методы включения хадисов в текст, сам текст и его перевод. Идеи основаны на поэтических фрагментах, взятых из эпической поэмы поэта «Хибат аль-хакойик».

Ключевые слова: Адиб Ахмад Югнаки, «Хибат уль-хакаик», Коран, хадис, цитата, аллюзия, акд, аллюзия поэтического искусства.

Кирish. Ма'lumki, Qur'on oyatlari va hadislarning musulmon sharqi xalqlari badiiy tafakkur tarzi, adabiyotida tutgan o'rni beqiyosdir. Adabiyotshunos olim H.Karomatovning ta'kidlashicha, o'zbek adabiyotining taraqqiyotini va unga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash uchun Sharq adabiy jarayonini nazarda tutish lozim. Mazkur jarayon esa islomiy tushunchalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, Qur'on kalimalarini va iboralarini chuqur tushunishni taqazo etadi. [1: 4]

“Hibat ul-haqoyiq” koshg'ariy tilda she'riy yo'l bilan yozilgan. “Qutadg'u bilig”dan 1-2 asr keyin yaratilgan bu asar o'zbek mumtoz adabiyotining noyob durdonasi hisoblanadi. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Yugnakiyni O'rta Osiyoning mashhur shayxlari qatoriga qo'yib, uning tug'ma ko'rliqi xususida so'zlaydi, yana Navoiy Husayn Boyqaroning o'g'li Badiuzzamonga yozgan xatlaridan birida ham “Hibat ul-haqoyiq”dan parchalar keltirganligi ma'lum. “Hibat ul-haqoyiq” asari shoir haqidagi ma'lumotlarni birmuncha to'ldirishga, Yugnakiy yashab ijod etgan davrni tahlil qilishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek adabiyotshunosligida Ahmad Yugnakiy va uning “Hibat ul-haqoyiq” dostoniga doir ilmiy izlanishlar N.Mallayev, Q.Mahmudov, G.Xo'janova, R.Vohidov tadqiqotlarida, shuningdek, o'tgan asrning 90-yillar matbuotida e'lon qilingan M.Imomnazarov, E.Umarov, I.Haqqul, H.Boltayev, N.Rajabov, Q.Tohirov kabi olimlarning maqolalarida kuzatiladi. Dostonning tanqidiy matni turk olimlari Najib Osim (1915-1916 va 1925 yillarda) hamda Arat Rahmatiy (1951-yilda) tomonidan Istanbulda nashr etildi. O'zbekistonda esa “Hibat ul-haqoyiq”

dostonini nashr etish Abdurauf Fitratning 1927-yilda yaratgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasidan boshlandi. Asarning ayrim boblari “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasining 1-tomiga kiritildi. Dostonning to‘liq nashri faqat 1971-yilga kelib tilshunos olim Q.Mahmudov tomonidan amalga oshirildi. Shu bilan birga, Q.Mahmudovning “Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari haqida” monografiyasida (Toshkent: Fan, 1972) dostonning filologik tahlili bilan birga arab yozuvidagi tanqidiy matni, uning kirill yozuvidagi transkripsiyasi hamda hozirgi o‘zbek tilidagi sharhi e`lon qilindi [3: 8].

Sho‘ro adabiyotshunosligi “Hibat ul-haqoyiq”dagi diniy ruhni inkor etmadi. Faqat buni “birinchi navbatda, doston yaratilgan davr qarama-qarshiliklarining in’ikosi” sifatida baholadi. Bugun esa “Hibat ul-haqoyiq”dagi diniy-tasavvufiy talqinlarni “davr qarama-qarshiliklarining in’ikosi” sifatida baholashga hech kimning haqqi yo‘q. Chunki shoir asarda ilgari surgan axloqiy mezonlar amalda uning asl dunyoqarashi, iymoni, e’tiqodi, mafkurasi bo‘lgan. Bu dunyoqarashi, iymoni, e’tiqodi va mafkurasi esa, shakshubhasiz, Qur’oni karim va hadisi sharifga suyangan [2: 26].

Natijalar va muhokama. Qoraxoniylar davri turkiy didaktik adabiyot rivojida alohida o‘rin tutuvchi Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari Qur’oni karim oyatlari va hadislarni birinchilardan bo‘lib turkiy she’riyatga olib kirgan, ularning ma’nolarini she’riy usulda yoritib berilgan asarlar sirasiga kiradi. Ma’lumki, XI-XII asrlar turkiy adabiyotda asar boblariga arab tilida sarlavha qo‘yish an’anasi mavjud edi. Adabiyotshunos olim S.Tohirovning tadqiqotlarida keltirilishicha, “Hibat ul-haqoyiq” dostonida arab tilidagi nasriy matnlar mavjud bo‘lib, ularning umumiy soni 37 ta (ularning 36 tasi sarlavha). Aksariyat matnlar “qolalloh” (Olloh(s.t)ning aytganlari) va “qola alayhissalamu”, “qola nabiyyu” (payg‘ambar (a.s.)ning aytganlari) jummalari bilan boshlanishi ularning muayyan oyat yoki hadisga ishora yoki shundan olinganligini ko‘rsatib turadi [3: 23].

Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul haqoyiq” asarida hadislardan faol foydalanilgan:

Towar birlä ersä uluysinduquq,

Uluyluq tarapu elig sunduquq.

*Towar asyī ne-ol barur-sen yaliñ,
Qalur munda kedīn sapat sanduquñ.*

Ya'ni: ulugsindig'ing nahotki mol-mulk bilan bog'liq bo'lsa, ulug'lik tomon qo'l uzatganing molga mog'liqmi? Molning foydasi nedirki unga intilasan, keyin bu dunyoda yiqqan-terganing qolib ketadi.

*Agar kibr idisi ašil-men tesä,
Ayayīn, men anīñ javābin kesä.
Ata bir, ana bir, uyalar bu xalq,
Tafāvutlari yoq ötä irtasä.*

Ya'ni: agar kibr egasi: "Men aslman", - desa, men uning javobini kesib aytayin: yaxshilab kuzatilsa, ota bir, ona bir, avlod va xalqlarning tafovutlari yo'q.

Mazkur ikki to'rtlik "**Qolan nabiyyu (s.a.v.) min tavaz(i)'in rafahullahu va man takabbura haza lahu Allohu**" sarlavhasi ostida keltirilgan. Bu matn barcha manbalarda quyidagicha tarjima qilingan: *Tavozelikni oshirish va kibrlilikni tashlash to'g'risida payg'ambarning aytganlari. Asarning 2019-yil Q.Sodiqov tomonidan chiqartirilgan nashrida mazkur hadis "Payg'ambar alayhissalom shunday degan: "Kimki kamtarin bo'lsa, Tangri uni yuksaltiradi, kimki takabbur bo'lsa, uni xor qiladi" tarzida tarjima qilingan.* Natijada mazkur matn sarlavha sifatida nashr etilgan va shu tarzda talqin qilingan: "Tavozelikni oshirish va kibrlilikni tashlash to'g'risida payg'ambarning aytganlari". Adabiyotshunos S.Tohirov bu tarzda kelgan hadislarini mazkur to'rtliklarning sarlavhasi emas balki, sharxi, izohi ekanligini ta'kidlaydi. Ustozning fikricha, arabcha matnga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda ma'no ancha keng va murakkab: "**Tavazi`in rafa`hullahu**" - tavozeli kishi (martabasi)ni Olloh yuksaltirishi va "**takabbura haza lahu Allohu**" - takabburlik, ya'ni kibrlanish, ulug'lanish Ollohgagina xos (Ungagina yarashadi) ekanligi haqida nabiy (a.s.)ning aytganlari [3: 18].

Mazkur ikki to'rtlik asarning uyg'ur yozuvidagi nusxasi asos qilib olingan nashrida, o'ninchi bobning oxirgi to'rtliklaridir. Nashrning o'n birinchi deya belgilangan bob "**Insonlar aslan birdirlar: otalari Odam va onalari Havvodir**"

sarlavhasi (izohi) bilan boshlangan va mazmunan o'ninchi bobning oxirgi to'rtligiga mos tushadi:

*Agar kibr idisi aşil-men tesä,
Ayayin, men anin javabin kesä.
Ata bir, ana bir, uylar bu xalq,
Tafavutlari yoq ötä irtasä.*

Shunga ko'ra S.Tohirovning sarlavha va izoh haqidagi fikrlari asosli hisoblanadi.

Shuningdek, asarda oyatlarga ishora qiluvchi baytlar ham talaygina:

*Ölögdin tirig ham tirigdin ölog,
Çiqarur körär-sen munı keđ aña.
Bu qudrat idisi uluy bir bayat,
Ölüglärni tirgürmək asan aña.*

Ya'ni: O'likdan tirik hamda tirikdan o'lik chiqaradi, ko'rarsan buni yaxshi bil. Bunday qudrat egasi ulug' bir tangridir, o'liklarni tiriltirmak uning uchun osondir. Mazkur baytga "Rum" surasi 19-oyatining ma'nosi singdirilganligini ko'rishimiz mumkin. Oyatning tafsiri quyidagicha: *U o'likdan tirikni chiqarur va tirikdan o'likni chiqarur va erni o'limidan keyin tiriltirur. Shunga o'xshash siz ham chiqarilursiz. (Har bir soniyada qandaydir o'simlik quriydi, boshqasi urug'dan chiqadi. Kimdir o'ladi, kimdir tug'iladi. Bu narsa erda ham, ko'kda ham, suvda ham bo'lib turadi. Son-sanog'iga etib bo'lmaydigan ushbu jarayonlarning har birini Alloh taolo amalga oshiradi.)*

Taniqli adabiyotshunos olim R.R sarlavhalarda keltirilgan oyat, hadis va arabiy iboralarga boshqacharoq yondashadi. Olim asarning Samarqand nusxasi bilan Istanbulda ko'chirilgan "B" va "C" nusxalarini qiyoslab Istanbul nusxasida 17 ta parchaning etishmayotganligini, "A" nusxadagi 326-, 350- va 434- misralardan keyin kelishi lozim bo'lgan hadis va oyatlarning 324-, 348- va 432-misralardan keyin kelganligi, 280-misradan keyin kelgan bir hadisning "C" nusxada 244-misradan keyin noto'g'ri takrorlanganligi hamda "A" nusxada 234-misradan keyin unchalik mos bo'lmagan hadisning keltirilganligi katta ehtimol bilan xattotning ishi ekanligiga ishora qilishini ta'kidlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, doston matnida bu kabi muammoli o‘rinlar talaygina. Bun kabi muammolarga echim toppish uchun asardagi arabcha matnlarni tarjima qilishdagi nuqsonlarni aniqlash, bob nomini bildiruvchi sarlavhalar hamda bayt yoki to‘rtlikning sharhi sifatida kelgan izoh jummalarni bir-biridan ajratib olish lozimdir. Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asari murakkab qur’oniy tushunchalar va hadislardan foydalanilgan holda turkiy xalqlar orasida islomning keng quloq yoyishiga katta hissa qo‘shgan. Keyingi davr tadqiqotlari ana shu muammoli tadbil ustida amalga oshirilganligi ham ma’lum.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karomatov H. O‘zbek adabiyotida Qur’on mavzulari (Fil.f.d. diss.). Toshkent - 1993.
2. Olimova D. XI-XII asrlar o‘zbek she’riyatidagi munajatnoma va me’rojnomalarning adabiy-irfoniy tahlili (PhD dis.) Samarqand-2025.
3. Tohirov S. Matn va tahlil.(Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” dostoni misolida). O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2008.-72 b.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006. 87-bet.
5. Алишер Навоий. Асарлар. 15-том. Т.: 1968. 156 бет.
6. Имомназаров М. Адиб Аҳмад қачон яшаган? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1995, 31-март
7. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. 116-бет.